


# GUVOHNOMA

## Maqola muallifligi bo'yicha

“Madaniy konseptlarning tarjimada uzatilishi, ingliz va o‘zbek badiiy matnlari misolida” (muallif: Nizamova Salomat Usmanovna) mavzusidagi maqola 2025-yil 27-dekabrda qabul qilinganligini tasdiqlaymiz va mazkur maqola 2026-yil 5-yanvarda «Zamonaviy ta’limda psixologik va pedagogik muammolar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plamida nashr etildi.

Maqolalar to‘plami **Yangi asr universitetining [yangiasr.uz](http://yangiasr.uz)** rasmiy saytiga joylashtirildi.


Yangi asr universiteti prorektori  
Q.Zohidov



“Grand ta’lim olam” NTM Psixologiya  
malaka oshirish va qayta tayyorlash  
bo‘limi boshlig‘i S.Qaxxorov



Lider yoshlar va ayollar markazi  
rahbari G.Kuvatova



**YANGI ASR UNIVERSITETI**

**LIDER YOSHLAR VA AYOLLAR MARKAZI**

**“GRAND TA'LIM” PSIXOLOGIYA MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH BO'LIMI**  
**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI “DIN PSIXOLOGIYASI” KAFEDRASI**  
**AQSH ning “THE JOURNAL OF INTERDISCIPLINARY HUMAN STUDIES” xalqaro ilmiy jurnali**

**MO'MINXO'JAYEVA MUNAVVARXON**

# SERTIFIKAT

**«ZAMONAVIY TA'LIMDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MUAMMOLAR»**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida “Ingliz va o'zbek kinodialoglarida so'zlashuv  
uslublarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi maqolasi bilan ma'ruza qilganligi uchun  
taqdirlanadi.

Yangi asr universiteti ilmiy ishlar  
bo'yicha prorektori

Q.Zohidov



05.01.2026

Psixologiya malaka oshirish va qayta  
tayyorlash bo'limi boshlig'i

S.Qaxxorov



Lider yoshlar va ayollar  
markazi rahbari

G.Kuvvatova



8. Lawrence Venuti The Translator's Invisibility, "Domestication and Foreignization" nazariyasi muallifi [venuti@temple.edu](mailto:venuti@temple.edu)  
<https://temple.academia.edu/LawrenceVenuti>

9. Survey Authors (Low-Resource MT) Survey of Low-Resource Machine Translation (2021) [hit.iyer@umass.edu](mailto:hit.iyer@umass.edu) <https://arxiv.org/abs/2109.00486>

10. Rustamovna G. D. Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida fikrni erkin va mustaqil bayon qilishni rivojlantirishda pedagogik va psixologik yondashuvlar //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 117-120.

## INGLIZ VA O'ZBEK KINODIALOGLARIDA SO'ZLASHUV USLUBLARINING QIYOSIY TAHLILI

*Nizamova Salomat Usmanovna*  
*Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasi Katta o'qituvchisi,*  
*Mo'minxo'jayeva Munavvarxon*  
*Filologiya fakulteti Ingliz tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek kinodialoglarida qo'llaniladigan so'zlashuv uslublarning qiyosiy-lingvistik tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki tilda kinomatn doirasida namoyon bo'ladigan og'zaki nutq xususiyatlari, stilistik vositalar, pragmatik birliklar hamda milliy-madaniy belgilarni aniqlash va taqqoslashdan iborat. Kino dialoglari tabiiy og'zaki nutqqa yaqinligi sababli, zamonaviy tilning dinamik rivojini, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarning til orqali ifodalanishini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Maqolada ingliz va o'zbek filmlaridan tanlab olingan dialoglar asosida qisqartmalar, so'zlashuvga xos birliklar, jargon va sleng, murojaat shakllari, emotsional-ekspressiv vositalar hamda nutq aktlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kinodialoglarda ijtimoiy rol, yosh, jins va vaziyat omillarining til tanloviga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ingliz kinodialoglarida individualizm, bevosita muloqot va qisqa replikalarning ustunligi aniqlansa, o'zbek kinodialoglarida hurmat, bilvosita ifoda va milliy odob-axloq me'yorlari bilan bog'liq til birliklari ko'proq uchrashi kuzatiladi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy, tavsifiy va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar tarjimashunoslik, kino tarjimasi, stilistika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Maqola ingliz

va o'zbek tillaridagi so'zlashuv uslublarning umumiy va farqli jihatlarini ochib berish orqali til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishga xizmat qiladi.

*Kalit so'zlar:* kinodialog, so'zlashuv uslubi, qiyosiy tahlil, pragmatika, ingliz tili, o'zbek tili.

**АННОТАЦИЯ** В данной статье проводится сравнительно-лингвистический анализ разговорных стилей, используемых в кинодиалогах английского и узбекского языков. Основной целью исследования является выявление и сопоставление особенностей устной речи, стилистических средств, прагматических единиц и национально-культурных компонентов, проявляющихся в кинодискурсе двух языков. Кинодиалоги, как форма художественного отражения живой разговорной речи, представляют собой ценный материал для изучения современного языка, коммуникативного поведения и культурных норм общества. Материалом исследования послужили диалоги из современных английских и узбекских художественных фильмов. В работе анализируются разговорные конструкции, сокращения, жаргонные и сленговые единицы, формы обращения, эмоционально-экспрессивные средства, а также речевые акты. Особое внимание уделяется влиянию социальных факторов — возраста, статуса, гендера и коммуникативной ситуации — на выбор языковых средств в кинодиалогах. В ходе исследования использованы сравнительный, описательный и прагматический методы анализа. Полученные выводы имеют практическую значимость для переводоведения, особенно в области кино-перевода стилистики и межкультурной коммуникации. Статья способствует более глубокому пониманию взаимодействия языка и культуры в рамках кинодискурса.

*Ключевые слова:* кинодиалог, разговорный стиль, сравнительный анализ, прагматика, английский язык, узбекский язык.

**ABSTRACT** This article presents a comparative linguistic analysis of conversational styles used in English and Uzbek film dialogues. The main objective of the study is to identify and compare the features of spoken language, stylistic devices, pragmatic elements, and national-cultural markers manifested in the cinematic discourse of the two languages. Due to their close connection with natural spoken speech, film dialogues serve as an important source for examining the dynamics of modern language use, communicative behavior, and cultural values. The research is based on selected dialogues from contemporary English and Uzbek films. The analysis focuses on colloquial expressions, contractions, slang and jargon units, forms of address, emotional and expressive means, as well as speech acts. Special attention is paid to the influence of social factors such as age, social status, gender, and communicative context on language choice in film dialogues. The findings reveal that English film dialogues are characterized by brevity, directness, and a high level of

individualization in speech, reflecting the communicative norms of English-speaking cultures. In contrast, Uzbek film dialogues demonstrate a greater use of polite forms, indirect expressions, and culturally specific speech patterns associated with respect and social hierarchy. These differences highlight the close relationship between language, mentality, and cultural traditions. The study employs comparative, descriptive, and pragmatic methods of analysis. The results obtained are of both theoretical and practical significance for translation studies, particularly in the fields of film translation, dubbing, and subtitling, as well as for stylistics and intercultural communication. By revealing the similarities and differences in conversational styles of English and Uzbek film dialogues, the article contributes to a deeper understanding of language as a reflection of culture within cinematic discourse.

**Keywords:** *film dialogue, conversational style, comparative analysis, pragmatics, English language, Uzbek language.*

**KIRISH** Zamonaviy tilshunoslikda so'zlashuv uslubi tilning eng faol va dinamik qatlamlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, og'zaki nutqqa yaqin bo'lgan kinodialoglar tilning real kommunikativ jarayonlardagi funksional imkoniyatlarini ochib berishda muhim manba hisoblanadi. Kino san'ati nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy va lingvistik jarayonlarni aks ettiruvchi kommunikativ platforma sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kinodialoglarni lingvistik jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning so'zlashuv uslubi milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Ingliz kinodialoglarida individualizm, bevosita muloqot va qisqa nutq birliklari ustun bo'lsa, o'zbek kinodialoglarida hurmat, bilvosita ifoda, ijtimoiy masofa va odob-axloq me'yorlari bilan bog'liq til birliklari ko'proq kuzatiladi. Bu farqlar kinodialoglar tarjimasida, dubbing va subtitrlash jarayonlarida muhim muammolarni keltirib chiqaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek kinodialoglarida qo'llaniladigan so'zlashuv uslublarini qiyosiy tahlil qilish, ularning leksik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida zamonaviy ingliz va o'zbek filmlaridan tanlab olingan dialoglar asosida so'zlashuvga xos birliklar, emotsional-ekspressiv vositalar, murojaat shakllari hamda nutq aktlari o'rganiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, kinodialoglar misolida ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlashuv uslublarining umumiy va farqli jihatlari madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqola natijalari tilshunoslik, tarjimashunoslik va chet tillarni o'qitish metodikasida amaliy ahamiyatga ega.

**ASOSIY QISM** Kinodialoglar og'zaki nutqning soddaligi, spontanligi va emotsionalligi bilan ajralib turadi. Ingliz kinodialoglarida qisqartmalar "I'm, don't, gonna", sleng va idiomatik birliklar keng qo'llanilib, nutqning tabiiyligini ta'minlaydi. O'zbek kinodialoglarida esa murojaat shakllari "aka", "opa", "ustoz", hurmat

ifodalovchi birliklar va bilvosita nutq aktlari ustunlik qiladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida so'zlashuv uslubi ko'proq shaxsiy fikrni ochiq ifodalashga yo'naltirilgan bo'lsa, o'zbek tilida nutq ijtimoiy munosabatlarni saqlash va hurmatni ta'minlash vazifasini bajaradi. Bu holat til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. Kinodialog tushunchasi va uning lingvistik ahamiyati; Kinodialog badiiy diskursning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u real og'zaki nutqning soddalashtirilgan, lekin estetik jihatdan qayta ishlangan shakli hisoblanadi. Kinodialoglar orqali qahramonlarning xarakteri, ijtimoiy mavqei, emotsional holati va madaniy muhitini aniqlash mumkin. Shu bois, kinodialoglar lingvistik tahlil uchun muhim empirik material sifatida qaraladi. So'zlashuv uslubining kinodiskursdagi o'rni; So'zlashuv uslubi kinodiskursda nutqning tabiiyligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Dialoglarning sun'iy yoki haddan tashqari kitobiy bo'lishi tomoshabin uchun ishonchsiz kommunikativ vaziyatni yuzaga keltiradi. Shu sababli rejissyor va ssenariynavislar jonli so'zlashuv nutqiga xos birliklardan faol foydalanadilar. Ingliz kinodialoglarida leksik xususiyatlar; Ingliz kinodialoglarida qisqartmalar "I'm, it's, don't", og'zaki nutqqa xos fe'llar "gonna, wanna" va sleng birliklar keng qo'llaniladi. Bu birliklar qahramon nutqining tabiiyligini oshiradi hamda ijtimoiy yaqinlikni ifodalaydi. Masalan, "You gotta trust me" jumlasini norasmiy muloqotga xosdir. Ingliz tilida kinodialoglar ko'pincha bevosita nutq aktlari orqali quriladi. Buyruq, talab yoki fikr ochiq ifodalanadi. Bu holat ingliz tiliga xos individualizm va ochiq kommunikatsiya madaniyatini aks ettiradi. O'zbek kinodialoglarida murojaat shakllari "aka", "opa", "ustoz" va hurmat bildiruvchi birliklar muhim o'rin tutadi. Bu birliklar nafaqat kommunikativ, balki madaniy funksiyani ham bajaradi. Qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa aynan shu birliklar orqali ifodalanadi. O'zbek kinodialoglarida pragmatik strategiyalar O'zbek tilida bilvosita nutq aktlari keng tarqalgan. Talab yoki tanqid ko'pincha muloyim shaklda, kinoya yoki iltimos orqali ifodalanadi. Masalan, "Bir daqiqa vaqtingizni ajratsangiz" jumlasini bevosita buyruq emas, balki muloyim so'rovdir.

Har ikkala tilda kinodialoglar emotsional-ekspressiv vositalarga boy. Ingliz tilida intonatsiya va qisqa replikalar muhim bo'lsa, o'zbek tilida undovlar, takror va emotsional so'zlar keng qo'llaniladi. Kinodialoglarda yosh, jins, ijtimoiy mavqe va vaziyat omillari til tanloviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ingliz filmlarida yoshlar nutqi slengga boy bo'lsa, o'zbek filmlarida yoshi ulug' shaxslar nutqi hurmat ifodalovchi birliklarga asoslanadi.

**QIYOSIY TAHLIL NATIJALARI** Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz kinodialoglarida kommunikativ maqsad tez va ochiq amalga oshiriladi, o'zbek kinodialoglarida esa muloqot jarayonida ijtimoiy uyg'unlik va hurmatni saqlash ustuvor hisoblanadi. Kinodialoglar orqali til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir til o'ziga xos madaniy qadriyatlarni nutq orqali aks

ettiradi. Kinodialoglarni tarjima qilish jarayonida milliy xususiyatlarni saqlab qolish muhim masala hisoblanadi. Ingliz tilidagi bevosita ifodalar o'zbek tiliga tarjima qilinganda yumshatish strategiyalaridan foydalanish talab etiladi.

Tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy, diskursiv va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy ingliz "Forrest Gump", "The Social Network", "Harry Potter" va o'zbek "Abdullajon", "Ibrat", "Shum bola" filmlaridan tanlab olingan kinodialoglar olindi. Dialoglar kontekst, nutq vaziyati va ishtirokchilarning ijtimoiy rollari asosida tahlil qilindi. Ingliz kinodialoglari qisqartmalar "I'm, don't, gonna", sleng "cool", "dude", idiomatik birikmalar va bevosita nutq aktlari bilan ajralib turadi. Masalan: "You gotta trust me". Bu misolda so'zlashuvga xos qisqartma va bevosita talab nutqi kuzatiladi. Ingliz tilida shaxsiy fikrni ochiq va tez ifodalash kommunikativ samaradorlikni oshiradi. O'zbek kinodialoglarida murojaat shakllari "aka", "opa", "domla", hurmat bildiruvchi birliklar va bilvosita nutq aktlari ustunlik qiladi. Masalan: "Aka, bir daqiqa vaqtingizni ajratsangiz." Bu dialogda muloyimlik va hurmat strategiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida so'zlashuv uslubi individualizm va ochiqlikka asoslangan bo'lsa, o'zbek tilida ijtimoiy uyg'unlik va madaniy me'yorlarga amal qilish ustuvor hisoblanadi. Bu farqlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi. Kinodialoglarni tarjima qilish jarayonida milliy xususiyatlarni saqlab qolish muhim masala hisoblanadi. Ingliz tilidagi bevosita ifodalar o'zbek tiliga tarjima qilinganda yumshatish strategiyalaridan foydalanish talab etiladi.

**XULOSA** Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek kinodialoglarida so'zlashuv uslublari o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu farqlar milliy-madaniy omillar, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ an'analar bilan belgilanadi. Maqola xulosalari kinotarjima, stilistika va madaniyatlararo muloqot sohalarida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Halliday, M. A. K. (2014). Halliday's Introduction to Functional Grammar. London: Routledge.
3. Brown, P., Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: CUP.
4. Hatim, B., Mason, I. (2000). Discourse and the Translator. London: Longman.
5. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
6. Karimov, S. (2019). O'zbek tilida so'zlashuv uslubining pragmatik xususiyatlari. O'zbek tili va adabiyoti, 3, 45–52.
7. Rasulova, M. (2021). Kinodiskurs va uning lingvistik tahlili. Filologiya masalalari, 2, 78–85.